



THE EXPRESSION OF THE SPEECH ACT PHENOMENON IN ABDULLA QAHHOR'S STORIES

Matkarimova Dinora Otakhanovna

Linguistics: 2nd year master's student of the Uzbek language

Urgensh RANCH Technological University

Annotation. Pragmalinguistics is one of the modern directions of linguistics, studying the situation of expression of language means and the various goals arising from this situation. Within this direction, the phenomenon of the speech act is of particular importance, because it reveals the inextricable link between the language system and the text. Speech act units are a linguistic phenomenon that is formed depending on the text and play an important role in increasing imagery in a literary text, enhancing communicative impact, and also expressing the author's speech strategy. This article analyzes the significance of the concept of a speech act in pragmalinguistics and the functions of locutionary, illocutionary, and perlocutionary phenomena in a literary text. Also, based on examples from literary works - stories and tales by Abdulla Qahhor, the pragmatic functions of speech act elements in the text are explained.

Keywords: pragmatics, speech act, locutionary act, illocutionary act, perlocutionary act, representative act, verbal speech act, nonverbal speech act.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA NUTQIY AKT HODISASINING IFODALANISHI

Matkarimova Dinora Otaxanovna

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi II-bosqich magistranti



Urgansh RANCH texnologiya universiteti

Annotatsiya. Pragmalingvistika tilshunoslikning zamonaviy yo 'nalishlaridan biri hisoblanib, til vositalarining ifodalanish vaziyati va bu vaziyatdan kelib chiqadigan turlicha maqsadlarini o'rganadi. Mazkur yo 'nalish doirasida nutqiy akt fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi, negaki u til tizimi va matn o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Nutqiy akt birliklari matnga bog'liq holda shakllanadigan til hodisasi bo'lib, badiiy matnda obrazlilikni oshirish, kommunikativ ta'sirni kuchaytirish, shuningdek muallifning nutqiy strategiyasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada nutqiy akt tushunchasining pragmalingvistikadagi ahamiyati hamda lokutiv, illokutiv, perlokutiv fenomenlarning badiiy matndagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiy asarlardan-Abdulla Qahhor hikoya va qissalaridan keltirilgan misollar asosida nutqiy akt elementlarining matndagi pragmatik funksiyalari izohlanadi.

***Kalit so'zlar:** pragmatika, nutqiy akt, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, reprezentativ akt, verbal nutqiy akt, noverbal nutqiy akt.*

So'zlashuvchilar o'zaro muloqot chog'ida bir-birlarini lisoniy vositalar yordamida anglaydilar, nutqiy aktlar muloqotning asosini tashkil etadi. Insoniy munosabatlar doirasi nihoyatda keng. Ijtimoiy- siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, pedagogik-psixologik, maishiy munosabatlarning barchasida muloqot asosiy o'rin egallaydi. Muloqot murakkab jarayon sifatida odamlarning o'zaro aloqadorlikdagi harakatini talab qiladi; kishilarning bir-biriga emosional ta'sir ko'rsatishini o'z ichiga oladi; ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi; shaxsiy munosabatlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi; bu jarayonda insonning ichki "men"i shakllanadi va namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlardan kelib chiqqan holda muloqotning perseptiv (o'zaro idrok etish va tushunish),



kommunikativ (axborot almashinuv), interfaol (o‘zaro ta’sir) vazifalari e’tirof etiladi. Nutqiy muloqot - kommunikantlarning bir-biriga ta’siri va uning samarasi - pragmalingvistikaning tadqiq manbai, bu jarayonga tizim sifatida yondashish esa bu yo‘nalishning asosiy tadqiq usulidir. [Toirova G. O‘zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2017. - B. 12.]

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutqiy muloqot samaraliligi uchun shakl va mazmun uyg‘unligining o‘zi yetarli emas. Nutqiy muloqot birliklarini nutqiy vaziyatga mos tarzda shakllantirish nutq ishtirokchilaridan pragmatik kompetensiyani talab qiladi. Pragmatik kompetensiya har bir inson uchun zaruriy kompetensiya bo‘lib, har qanday faoliyatning samaradorligida muhim ahamiyatga ega. Chunki so‘zlovchi pragmatik kompetensiyaga yetarli darajada ega bo‘lsa, bilimlarini zaruriy va eng to‘g‘ri shaklda tinglovchiga yetkaza oladi. So‘zlovchida pragmatik kompetensiya yetarli darajada tarbiyalangan bo‘lsa, har qanday nutqiy vaziyatda fikrini tinglovchiga, u kim bo‘lishidan qat’iy nazar, maqsadga muvofiq tarzda uzata oladi. Demak, pragmatik kompetensiya nutqiy jarayonda vaziyatga mos strategiyani qo‘llash, maqsadni aniq bera olish, o‘zaro tushunishga harakat qilish, vaziyatni nazorat qila olish, muloqot ishtirokchisiga ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Zero, professor Sh. Safarov ta’kidlaganidek, so‘zlash fikrini boshqalarga yetkazish emas, ularda o‘z fikrini uyg‘otishdir. [Potebnya A.A. Teoreticheskaya poetika. - Moskva: Vysshaya shkola, 1990. - S. 15.]

Har bir tilda muayyan fikrni turli ko‘rinishlarda ifodalash imkoniyati mavjud. Bu imkoniyat tilning barcha sath birliklarida kuzatiladi. Sinonimiya, tagma’no, intonatsiyaning turli bo‘yoqlari, leksik birliklarning neytral va bo‘yoqdor qatlamlari,



morfoloqik birliklarning ma'no ozikliklarini ifodalashdagi o'rindoshligi va boshqalar shular jumlasidandir. Bu usul va vositalardan eng o'rinli va munosibini tanlay olish natijasidagina samarali muloqotga erishiladi. Y.D.Apresyan pragmatika so'zlovshining voqelikka, xabarning tuzilishiga, , pragmalingsvist A.Maslova nutq harakatini amalga oshirishda gapni tayyorlash - vaziyatni hisobga olish va o'tgan tajriba asosida aytiladigan gapning motivlari, ehtiyoji, maqsadlari, ehtimoliy oqibatlarini hisobga olish asosida umumiylik yoki aniqlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan gapning ichki rejasini tuzish; gapni qurish - so'zlarni tanlash, ularning "baholanish" mexanizmini ishga tushirish, kerakli ketma-ketlikda qo'yib chiqish, grammatik ishlov berish; tashqi nutqqa o'tish - gapning tovushli yoki yozma ishlovini amalga oshirish bosqichlarini qayd etadi. Agar gapni qurish va tashqi nutqqa o'tish jarayonini qandaydir sabablarga ko'ra buzilgan bo'lsa, atrofdagilarga bunday nutq to'liq bo'lmagan, aloqasiz, tushunishga qiyin tuyuladi. Nutq harakatining natijasi haqida uning qabul qilinishi va unga bo'lgan reaksiyasiga qarab fikr yuritiladi, deb qayd etadi. [Maslova A. Vvedeniye v pragmalingsvistiku. - Moskva: Flinta. - S. 77.]

Ma'lumki, yozuvchi badiiy asar orqali kitobxon bilan muloqotga kirishadi. Kitobxon bilan muloqot muayyan g'oya, muayyan maqsad asosida amalga oshiriladi. Aslida har qanday muloqot ma'lum maqsadga ko'ra yuzaga keladi.

Nutqiy muloqotning eng kichik birligi nutqiy akt hisoblanadi va pragmalingsvistikaning markaziy tushunchalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Nutqiy akt lingvistik pragmatika bo'limining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, 1962-yilda ingliz tilshunosi J. L. Ostin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o'zining "How to Do Things with Words" (So'zlar bilan nimalar qilish mumkin) nomli



asarida so‘zlash faqat faktlarni bildiruvchi akt emas, balki u orqali turli ijtimoiy va kommunikativ harakatlar ham amalga oshirilishini tushuntirgan. Ushbu tushuncha keyinchalik J. R. Serl tomonidan rivojlantirilib, turli nutqiy akt turlari va ularning xususiyatlari aniqlangan. Nutqiy akt tilshunoslik va muloqot nazariyasida muhim tushuncha hisoblanadi. Ushbu atama tilning og‘zaki yoki yozma shakllarida bajariladigan harakatlarni anglatadi. Nutqiy akt turli kontekstlarda insonlar tildan qanday maqsadlar uchun foydalanishini tushunishda markaziy o‘rinni egallaydi. Nutqiy muloqot ishtirokchilarining o‘zaro munosabati, ijtimoiy maqomi, nutqiy muloqot vaziyati, o‘zaro tushunish jarayoni, ishtirokchilarning muloqot strategiyasi va taktikasi, xarakter xususiyatlari, gender o‘ziga xosligi, ichki intensiyasi nutqiy Hakimov “Nutqiy aktlar matn yoki nutq mazmunidan hosil bo‘luvchi umumma’nomlardir” [Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. DD. - Toshkent, 2001. - B.107.], deb ta’riflansa, Sh.Safarov “nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaati” ekanligini ta’kidlaydi [Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent, 2008. - B. 77].

A. Maslova fikricha, nutqiy akt bu muayyan maqsad bilan yuzaga kelgan, faol t
a
tn orqali ifoda etiladigan, tinglovchiga yetkazilmoqchi bo‘lgan umumiy maqsad,

Xulosa qiladigan bo‘lsak, lingvistik pragmatikaning asosiy maqsadi tilni matnda o‘rganishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda til ijtimoiy, situativ va boshqa turli kommunikativ sharoitlarda o‘zaro muloqot vositasi sifatida tahlil qilinadi. Mazkur maqolada nutqiy aktning o‘zbek tilidagi badiiy matnlarda ifodalanish xususiyatlari



hamda o'xshash va farqli jihatlari muhokama qilindi, xususan, Abdulla Qahhor nasriy asarlarida-hikoyalarida tagma'ning turli kinoyaviy va ishoraviy ko'rinishlari qo'llanadi. Istehzo, piching, kesatiq kabi mazmuniy turlari ifodaning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Nutqiy akt pragmatikadagi markaziy tushunchalardan bo'lib, ifodaning umumiy mazmunini, kontekstda aks etgan so'zlovchi ichki maqsadini anglatadi.

Perlokutiv akt muloqot jarayonidagi tinglovchining javob reaksiyasi bosqichi bo'lib, muloqotning samarali davom etishi, o'zaro munosabatlarning barqarorlashuvi yoki aksincha beqarorlashuviga sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur masalalar yanada chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Pragmatik nazariya va amaliyot sathlarining haligacha aniq belgilab olinmaganligi pragmatikaning lingvistik sohasiga oid nutqiy akt nazariyasi, diskurs tahlili bilan bir qatorda sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, antropologiya va boshqa fanlar bilan uzviy aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar. Abdulla Qahhor.: — T.: G 'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. — 200 b.
 2. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М.: Наука, 1974. – 366 с.
 3. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 286 б.
 4. Сребрянская Н.А. Дейксис и его проекции в художественном тексте: Автореф. дис...докт.филол.наук. - Волгоград, 2005.
- Toirova G. O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik.



- Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –
Toshkent, 2017. – 12 b
6. Potebnya A.A. Teoreticheskaya poetika. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990. –
15 b
 7. Maslova A. Vvedeniye v pragmalingvistiku. – Moskva: Flinta, 2010
 8. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. DD. – Toshkent, 2001.
 9. Nurmonov A. v.b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1990. – B.